

**“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar  
instituti Kengashining 1–sonli bayonnomasidan  
KO‘CHIRMA**

2024 yil 27 avgust

Qarshi sh.

**Raislik qildi:**

Z.M.Muqimov Kengash raisi, institut  
direktori, i.f.n., dotsent.

**Ishtirok etganlar:**

Institut Kengashi a’zolari. Umumiy  
soni-31 nafar, ishtirok etdi - 25 nafar  
Kengash a’zosi va taklif etilganlar.

**K U N T A R T I B I:**

**Turli masala.**

**6.4.** Institut professor-o’qituvchilari tomonidan tayyorlangan o’quv qo’llanmani vazirlik grifini olishga tavsiya etish to’g’risida.

**6.4. E S H I T I L D I:**

**Z.Muqimov** – Kun tartibidagi 6.4.-masala institut professor-o’qituvchilari tomonidan tayyorlangan o’quv qo’llanma vazirlik grifini olishga tavsiya etish to’g’risida ma’lumot berish uchun so’z, O’quv-uslubiy bo’lim boshlig’i Abdiyev Anvar Almirzayevichga, marhamat.

**A.Abdiyev** – “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining “Geodeziya va geoinformatika” kafedra dotsent O’.P.Islomov va Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti “Geodeziya va geoinformatika” kafedra katta o’qituvchisi F.S.Safarovlar tomonidan hammuallifligida tayyorlangan “Geodeziya” fanidan amaliy mashg’ulotlarni o’tish uchun mo’ljallangan o’quv qo’llanmani muhokamadan o’tkazish va tasdiqlash uchun taqdim etilgan bo’lib, unga ichki va tashqi taqrizlar olingan. Respublika Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o’rta maxsus, professional ta’lim yo’nalishlari bo’yicha o’quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash muhokamasiga tavsiya etish uchun tayyorlanganligini ma’lum qilaman.

**Ushbu o’quv qo’llanmaga taqrizchi** QarMII “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedra dotsenti q.x.f.f.d. K.N.Xujakeldiyev va “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti “Yer resurislarni boshqarish” kafedra dotsenti q.x.f.f.d. J.CH.Urinovlar tomonidan ijobiy taqrizlar berilganligini ta’kidladi.

**Mazkur o’quv qo’llanma muhokamasi** “Geodeziya va geoinformatika” kafedra yig’ilishining (№1 20.08.2024y), va “Chorvachilik va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti o’quv-uslubiy komissiyasi yig’ilishining (№1 24.08.2024y), yig’ilishlarida atroflicha muhokama qilinganligi bilan tanishtirib o’tdi.

Ushbu masala yuzasidan savollar bo’lmadi.

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti Kengashi O’quv-uslubiy bo’limi boshlig’i A.Abdiyevning o’quv qo’llanmani nashrga tavsiya etish to’g’risidagi axborotini tinglab va muhokama qilib

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining “Geodeziya va geoinformatika” kafedra dotsent O’.P.Islomov va Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti “Geodeziya va geoinformatika” kafedra katta o’qituvchisi F.S.Safarovlar tomonidan hammuallifligida tayyorlangan “Geodeziya” fanidan amaliy mashg’ulotlarni o’tish uchun mo’ljallangan o’quv qo’llanma barcha meyoriy talablarga mosligini inobatga olib tasdiqlansin.

2. Ushbu o’quv qo’llanma O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Muvofiqlashtiruvchi Kengash muhokamasiga tavsiya etilsin.

**Kengash raisi**

**Kengash kotibi**



**Z.Muqimov**

**R.Xushvaqto**